

**“TASDIQLAYMAN”**  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Prezidenti huzuridagi Statistika**  
**agentligi direktori o‘rinbosari**  
  
**Z. Ziyayev**  
2024-y. “28” iyul

## **INTERAKTIV XIZMATINING REGLAMENTI**

### **KORXONA VA TASHKILOTLAR TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT OLISH**

#### **1. Xizmatning ta’rifi (pasport)**

##### **1.1. Xizmat nomi**

Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot olish.

##### **1.2. Xizmat natijasi**

So‘ralayotgan yuridik shaxsning STIRini kiritib, Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYADR) ma’lumot bazasidan ochiq axborotlarni bepul olish.

##### **1.3. Xizmat ko‘rsatish organlari va blankalarni olish joylari**

Statistika agentligining rasmiy sayti [www.stat.uz](http://www.stat.uz).

##### **1.4. Huquqiy asoslar**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko‘rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 539-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2014-yil 30-maydagi “Yuridik shaxslarni hisobga olish va identifikatsiya qilishni avtomatlashtirilgan axborot tizimi “Reg-System”da ishlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 3-mb-son qarori (ro‘yxat raqami 2594, 2014-yil 12-iyun).

##### **1.4.Xizmat qabul qiluvchilari**

Jismoniy va yuridik shaxslar.

##### **1.5. So‘rov berish muddatlari**

So‘rov berish muddati o‘rnatilmagan.

##### **1.6. Bajarilish muddati**

Statistika agentligi rasmiy sayti [www.stat.uz](http://www.stat.uz) orqali real vaqt rejimida.

O'rnatilmagan.

### **1.7. Tasdiq berilish muddati**

## **2. Xizmat qabul qiluvchilarini habardor qilish**

### **2.1. Axborot tarkibi va hajmi**

KTYADRdagi korxona va tashkilotlar to'g'risidagi barchaning foydalanishi uchun ochiq bo'lgan ma'lumotlar:

- ro'yxatdan o'tkazuvchi organ
- davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sana
- davlat ro'yxatidan o'tkazilgan raqami
- yuridik shaxsning nomi
- tashkiliy-huquqiy shakli
- IFUT kodi (amalga oshirilayotgan faoliyat turi)
- DBIBT kodi (idoraviy mansublik kodi)
- kichik tadbirkorlik subyektlariga mansubligi
- faollik holati
- ustav fondi
- ta'sisshilar va ularning ustav fondidagi ulushi haqida ma'lumotlar (aksiyadorlik jamiyatlari bundan mustasno)
- aloqa ma'lumotlari (elektron pochta manzili, aloqa telefoni, MHOBT kodi, joylashgan yeri (pochta manzili))
- rahbari (soliq organlari ma'lumotlari asosida)

### **2.2. Katta miqyosda xabardor qilish**

O'rnatilmagan.

### **2.3. So'rov bo'yicha xabardor qilish**

Statistika agentligi rasmiy sayti [www.stat.uz](http://www.stat.uz) orqali real vaqt rejimida.

### **2.4. Xizmat ko'rsatish joyi haqida xabardor qilish**

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirzo-Ulug'bek tumani, 100192, Mustaqillik shoh ko'chasi 63.

### **2.5. Foydalaniladigan hujjatlar blanklari (shakllar)**

O'rnatilmagan

## **3. Xizmat ko'rsatish**

### **3.1. Ish vaqti**

Statistika agentligi rasmiy sayti [www.stat.uz](http://www.stat.uz) orqali real vaqt rejimida.

### **3.2. Kutish shartlari**

O'rnatilmagan.

#### **4. Xizmat ko'rsatish tartibi**

##### **4.1. Shart bo'lgan hujjatlar**

Talab etilmaydi.

##### **4.2. Xizmat haqi**

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

##### **4.3. Interaktiv xizmatining ko'rsatish bosqichlari**

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi ochiq ma'lumotlarni olish uchun [www.stat.uz](http://www.stat.uz) saytga kirish lozim. O'ng tarafdagi "Interaktiv xizmatlar" menyusidan "Korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot" bo'limini tanlash kerak. So'ngra so'ralayotgan yuridik shaxsning STIRini kiritish lozim.

##### **4.4. Interaktiv xizmatini ko'rsatishda idoraviy ichki tartiblar**

O'rnatilmagan.

##### **4.5. Rad etish asosi**

O'rnatilmagan.

#### **5. Sifat ta'minoti**

##### **5.1. Sifat parametrlari**

Xizmat ko'rsatish sifati taqdim etilayotgan xizmatlar uchun o'rnatilgan tartibga muvofiq.

##### **5.2. Sifatsiz xizmatga shikoyat**

Shikoyat, o'rnatilgan tartibda statistika organlariga yozma murojaat orqali yoki Statistika qo'mitasining rasmiy saytidagi qayta aloqa shakli orqali amalga oshiriladi.



**5.3. Korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot olish bo'yicha  
interaktiv xizmatini ko'rsatish sxemasi**

| Bosqichlar | Subyektlar                                   | Tadbirlar                                                                                                                | Bajarish muddatlari |
|------------|----------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------|
| 1-bosqich  | Murojaatchi<br>(yuridik yoki jismoniy shaxs) | Statistika agentligining rasmiy <a href="http://www.stat.uz">www.stat.uz</a> saytiga kiriladi.                           | O'z xohishiga ko'ra |
| 2-bosqich  | Murojaatchi<br>(yuridik yoki jismoniy shaxs) | “Interaktiv xizmatlar” menyusidan “Korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot” bo'limi tanlanadi.                      | O'z xohishiga ko'ra |
| 3-bosqich  | Murojaatchi<br>(yuridik yoki jismoniy shaxs) | So'ralayotgan yuridik shaxsning STIRi kiritiladi.                                                                        | O'z xohishiga ko'ra |
| 4-bosqich  | Statistika agentligi                         | KTYADRdagi korxona va tashkilotlar to'g'risidagi barchaning foydalanishi uchun ochiq bo'lgan ma'lumotlar taqdim etiladi. | Real vaqt rejimida  |